www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

OILADA BOLA TARBIYASIGA E'TIBORNING O'RNI VA AHAMIYATI

Jabborova Saodat Zoirovna

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Maqolada oila, uning jamiyat negizi ekanligi, oilada bola tarbiyasiga e'tibor, ota-ona va oila a'zolarining oilaviy qadriyatlari, oilada farzand tarbiyasi masalasi hamisha davlatning diqqat-e'tiborida ekanligi, har bir ota-ona farzand tarbiyasida o'zlarining burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozimligi, oiladagi tarbiya, ijtimoiy, ruhiy, jismoniy, xulqiy, axloqiy va shaxsiy sifatlarga asos solinishining muhimligi va bu haqda ajdodlarning ta'limotlari haqida so'z boradi.

Калит сўзлар: oila, jamiyat, oilaviy qadriyatlari, oilada farzand, diqqat-e'tibor, ijtimoiy, ruhiy, jismoniy, xulqiy, axloqiy va shaxsiy sifatlar, ajdodlar ta'limoti

Аннотация. В статье отмечается, что семья, ее основа общества, внимание к воспитанию детей в семье, семейные ценности родителей и членов семьи, вопрос воспитания детей в семье всегда находится в центре внимания государства, каждый родитель должен глубоко осознавать свои обязанности и ответственность в воспитании детей, воспитание в семье, социальное, психическое, физическое, поведенческое, нравственное воспитание и т.д. и речь идет о важности того, чтобы личные качества были основаны на них, и о учении предков об этом.

Ключевые слова: семья, общество, семейные ценности, ребенок в семье, внимание, социальные, психические, физические, поведенческие, моральные и личностные качества, учение о предках

Annotation. The article talks about the importance of family, its basis in society, attention to raising a child in the family, family values of parents and family members, the fact that the issue of raising a child in the family is always in the attention of the state, that each parent should have a deep understanding of their duty and responsibility in raising a child,

Keywords: family, Society, Family Values, child in the family, attention, social, mental, physical, behavioral, moral and personal qualities, ancestral doctrine

Ma'lumki, har bir oilada farzand tarbiyasiga e'tibor bu mamlakat taraqqiyoti va kelajagini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Taniqli davlat va jamoat arbobi, yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos va siyosatshunos olim Abdurauf Fitrat (1886-1938) o'zining «Oila» asarida farzand tarbiyasi haqida o'z fikrini bildirib: "Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar.", - deb yozadi.

Shu bois qadimdan mahalla ahli, ayniqsa, nuroniy otaxonu onaxonlarimiz ko'cha-ko'yda nobop xatti-harakat qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketishmagan. Shu zahotiyoq tanbeh berib, to'g'ri yo'lga solishgan. O'sha bola pand-nasihatlarga quloq tutmasa, bu haqda ota-onasi, muallimlarini xabardor qilishgan. Kerak bo'lsa, bu holat mahalla ahli o'rtasida muhokama qilinib, bolaning ota-onasiga nisbatan ta'sir choralari ko'rilgan.

Darhaqiqat, oilada farzand tarbiyasi masalasi hamisha davlatimizning diqqat-e'tibori va himoyasida bo'lib kelmoqda. Asosiy qonunimiz bo'lgan Konstitutsiyamizda: «Oila jamiyatning

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega», deb belgilab qo‘yilgan.

Zero, har bir farzand, avvalo, oilada ulg‘ayadi, kamol topadi. Oila qadriyatlari zamirida unib o‘sadi, o‘z o‘rni, o‘z mavqei, o‘z dunqarashiga ega shaxs sifatida dunyoni taniydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviyat qo‘rg‘oni bu – oiladir». Bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz barkamol avlodni tarbiyalashdir. Shu bois ham mamlakatimizda barcha xayrli ishlar avvalo oilalarni mustahkamlash va yosh avlodning yorug‘ kelajagini ta’minlash maqsadida amalga oshirilmoqda. Zero, oila sog‘lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir.

Har bir ota-ona farzand tarbiyasida o‘zlarining burch va mas’uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Shunday ekan, oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat, ota-ona obro‘si¬ning yuqori bo‘lishi muhim sanaladi. Bolalarga talab qo‘yishda oila kattalari o‘rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnat orqali tarbiyalashga alohida e’tibor berish lozim. Boladagi o‘zgarishlarni kuzatib borish, undagi intilish va qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash darkor. Bularning barchasi ota-onalarning pedagogik bilimlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda «Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?» degan savol ko‘pchilikni o‘ylantiradi. Mutaxassis olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Buyuk bobokalonimiz Ibn Sino esa, bola tarbiyasi bilan uning tug‘ilishidan avvalroq, ona qornidaligidayoq shug‘ullanish lozim, degan ekanlar.

Bola dunyoga kelgan kundan boshlab ota onaning bola tarbiyasi uchun javobgarligi va mas’ulyati orta boshlaydi. Azal-azaldan bola tarbiyasi bilan asosan ona shug‘illanib kelgan. Otaning asosiy vazifasi esa oilani boqish bo‘lib, fakatgina uyda bo‘lgan vaktda bolani nazorat qilib borish bo‘lgan holos. Bola o‘z oilasida tevarak –atrofi qarindosh va yaqinlariga to‘la bo‘lgan muhitda tarbiyalanadi. Shu sabab bu kabi oilalar uning dunyo qarashi va xulqiga doim o‘z ta’sirini o‘tkazib turadi, undagi tarbiyaning shakillanishiga o‘ziga hos fundamentni yaratadi.

Zero, odobli, bilimdon, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Darhaqiqat, har bir farzand shaxsi oilada shakllanadi. Demak, oila-barkamol avlod poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni axloqiy-huquqiy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, adolat, burch, vatanparvarlikni shakllantirish, ona vatanni sevish hissini uyg‘otish o‘ta muhim hisoblanadi.[1] Farzand tarbiyasi bu eskirmaydigan, o‘z mavqeini yo‘qotmaydigan azaliy odatlardan biridir. Ota-bobolarimiz bunga asrlar davomida alohida e’tibor berganlar. Tarbiya borasida buyuk faylasuflar, olimlar va allomalarimiz o‘zlarining nodir asarlarida qimmatli fikr-mulohaza hamda nasihatlarini yozib qoldirganlar. Ayniqsa, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Najmiddin Kubro, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkir allomalarimizning o‘nlab asarlarida odob-axloqning go‘zal namunalari badiiy-falsafiy talqin qilingan.[2] Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Turkiston (Markaziy Osiyo) o‘lkasida pedagogik fikrlarning rivojlanishida, xalq maorifi ishlarini yuksaltirishda ilg‘or ziyolilarning xizmatlari kattadir. Bunda jadid adabiyotining yirik vakili shoir, dramaturg, muallim Abdulla Avloniy (1878-1934) ning o‘rnini alohida e’tirof etish joizdir. U maktablar ochib, shaxsan o‘zi muallimlik qilish bilan birga maktablarni darsliklar bilan ta’minlash ishiga katta hissa qo‘shdi. Uning qalamiga mansub “Turkiy Guliston yoxud axloq”, “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” “Maktab Gulistoni “asarlari bir necha bor nashr etildi. Bular ichida “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari o‘zbek klassik pedagogikasining ajoyib namunasi hisoblanadi. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari Sa’diyning

[1] SH.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. Toshkent.2017.

[2] Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirishxalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so‘zi”, 2017- yil 4-avgust .

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

“Guliston” asari usulida o‘zbek tilida yozilgan axloq kitobidir. Abdulla Avloniyning mazkur asari 1913-yilda Toshkentda Ilin bosmaxonasida litografik (toshbosma) usulida nashr etiladi. O‘sha davrda bunday darslikka bo‘lgan ehtiyojni hisobga olib 1917-yilda ikkinchi marta chop qilinadi. Har ikki nashr ham hajm jihatidan bir-biridan farq qilmaydi. Faqat birinchisi kotib Abdusalom Abdurahmon o‘g‘li, ikkinchisi kotib Abdul Mannon ibni Abdul Majid (o‘zbek milliy teatrining mashhur aktyori Mannon Uyg‘ur Majidov) tomonidan ko‘chirilgan. “Turkiy guliston yoxud axloq” asari katta ahamiyatga molik axloqiy va ta’limiy tarbiyaviy asardir. Asarda alloma yoshlar tarbiyasining ahamiyati va uni amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlari to‘g‘risida to‘xtalib, komil insonlarni shakllantirishdagi muhim omillarni ko‘rsatishga harakat qilgan.

Ota ona avvalam bor o‘z farzandiga to‘g‘ri tarbiya berib borishga bu yo‘lda hamisha izlanishda bo‘lib, o‘qish va tajriba ortirish lozim yana shunisi ahamiyatliki, boladagi barcha xislatlar diniy axloq bilan kamolga yetadi. Shu bois tarbiya eng avvalo go‘zal fazilatli axloq bilan bezatilmog‘i darkor. Axloqiy tarbiyaga esa har bir insonning muqaddas go‘shasi, boshpanasi hisoblangan oilada asos solinadi. Bu yo‘lda ota onalar o‘zlarining odob axloqi bilan ibratli bo‘lishlari lozim, chunki ota-onalar bolaning, ilk bora ko‘zini ochishdan to yoshi katta bo‘lib aqlini tanigunga qadar bo‘lgan vaqtda bo‘lib kelgan hayotlaridagi birinchi tarbiyachilari hisoblanadi.

Shuni ham alohida aytish lozimki, bola tarbiyasiga hech bir narsa namuna kabi kuchli tasir o‘tkaza olmaydi. Oiladagi tarbiya, ijtimoiy, ruhiy, jismoniy, xulqiy, axloqiy va boshqa sifatlarga asos soladi, teran shakillantiradi va negizidan kamol toptiradi. Oila jamiyatning kichik bir o‘chog‘laridan biri hisoblanib, bu dargohda kelajakda katta poydevorga asos soladigan barkamol avlod voyaga yetadi. Shuni unutmasligimiz lozimki, shaxsning shakillanishi nihoyatda murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Oilaviy tarbiya bolaning umumiy va o‘ziga xos rivojlanishini taminlash bilan birga, mavjud imkoniyatlarini va aqliy tafakkurini yuksaltiradi. Bolaning jismonan sog‘lom, aqlan yetuk, axloqan pok, mehnatsevar, madaniyatli, intelektual salohiyatli bo‘lib o‘sishdan jamiyatimiz ham manfatdor.O‘quv tarbiyaviy muassasalarning tarbiya borasidagi ishlari qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilishidan qaty nazar, tarbiya masalalarini oila hal qiladiyu Bog‘cha va maktablar talim berib tarbiyalasa, ota-onalar faqat tarbiyalabgina qolmay, ular bilan birga yashaydilar ham. Shu imkoniyatlar bois bolaning tarbiyasiga tasiri kuchli bo‘lib uzoq davom etadi. Ota-onalarningfarzand uchun fidoiy bo‘lishi, bu o‘zbek millati mentalitetining o‘ziga xos bo‘lgan ajoyib fazilatlaridan biridir.

Yoshlarimiz ilm-fan madaniyat, texnika sanat va sport yuksak darajada rivojlangan bir sharoitda ulg‘aymoqda. Sharq mutafakkirlarining g‘oyalari tarbiyaviy masalalarda xalq donishmandligi, azaliy urf odatlar va qadriyatlar bilan uyg‘unlashib ketganligini hisobga olgan holda ota-onalarning bolalar tarbiyasiga bo‘lgan munosabati, oiladagi o‘zaro muloqot, keksa yoshdagilar va bolalarga beminnat g‘amxo‘rlik, kabi o‘y fikrlari aks ettirilgani muhim axamiyat kasb etmoqda. Oilada bolaning nutqi shakillanishi va rivojlanishi barobarida ular ongiga kattalarga hurmat, do‘stlik, halollik, insoniylik tushunchalarini singdirib boriladi. Etibor qilgan bo‘lsangiz, xuddi shu vaqtda ular atrofdagilarni turli xil savollarga ko‘mib tashlashadi, olgan javoblari qanday bo‘lishidan qaty nazar ularning kelgusi hayotda dasturilamal bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ijtimoiy davlat taraqqiyoti mustahkam ma’naviy immunitetli, mustaqil hayotda yuqori marralarga erisha oladigan avlodni tarbiyalashga bog‘liq. Bunda bola tarbiyasida ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Kelgusida yurtimizni yanada ravnaq toptirishga mas’ul bo‘ladigan farzandlarimizga shunday tarbiya berish yo‘llarini izlab topishimiz zarurki, natijada ular ota-bobolariga, shonli tarixi, Vatani, ona tili, millati, dini va an’analariga sodiq bo‘lgan holda unib o‘sishlari, kamolotga yetishlari ta’minlansin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.SH.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. Toshkent.2017.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 2, 2023

2.Shavkat Mirziyoyev. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirishxalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. “Xalq so‘zi”, 2017- yil 4-avgust .
3.Rizouddin ibn Faxruddin. Oila. – T.: 1991, – 60 b.
4.Sa’diy SHeroziy. Guliston. – T.: 1998, – 182 b.

5.Safarov O. Mahmudov M. Oila ma’naviyati. – T.: 1998. 160 b.

6.Saidalieva N.Z. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyor- lashning ijtimoiy-falsafiy muammolari. Falsafa fan. nom. diss. Avtoref. – T.: O‘zMU, 2005, – 26 b.

7.Soifnazarova F. Oila – ma’naviyat maskani. // Guliston, 1999, 5-son, 8–9-betlar.